

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

С.Неъматжан, О.А.Акбаров, З.Ш.Нуридинов	
Коммуникативные качества речи	742
М.Т.Абдулаттоев	
О'zbek tilining funksional sintaksisi masalalari	746
А.Р.Косимов	
Формирование компетенций в изучении русского языка	750
Н.А.Қўлдасhev	
Ijtimoiy muloqotda o'zbek tilidan foydalanilish	754
X. Sharifiddinov	
Aforizm – falsafiy mushohadalar ifodasi	757
А.Г.Муҳиддинов	
Нейросемантические механизмы идентификации новшества	760
М.А.Хусанова	
О'zbek tilshunosligida idiosil antropotsentrik yondashuv mahsuli sifatida	765
Е.И.Ибрагимова	
Аксиологик bahoning uslubiy xususiyatlari	768
Z.M.Sobirova	
Нейropsixolingvistik konsepsiyalar	771
G.Sh.Kaxxorova	
Til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni va vazifalari	776



UO'K: 808.5

AFORIZM – FALSAFIY MUSHOHADALAR IFODASI**АФОРИЗМ – ВЫРАЖЕНИЕ ФИЛОСОФСКИХ НАБЛЮДЕНИЙ****APHORISM – AN EXPRESSION OF PHILOSOPHICAL OBSERVATIONS****Sharifiddinov Xursand** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.v.

Аннотация

Maqolada aforizm va uning mohiyati, belgilari va ayrim turlari, ularning o'ziga xosliklari haqida gap boradi, ta'rifi beriladi. Asqad Muxtor aforizmlari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Аннотация

В статье говорится об афоризме и его сущности, признаках и некоторых видах, их особенностях, дается определение. Даются комментарии к афоризмам Аскада Мухтара.

Abstract

The article talks about the aphorism and its essence, characteristics and some types, their features, and a definition is given. Comments are given on the aphorisms of Askad Mukhtar.

Калит сўзлар: aforizm, hikmat, falsafiy-axloqiy, ta'limiy-didaktik, fard, qit'a.

Ключевые слова: афоризм, мудрость, философско-этический, учебно-дидактический, личность, континент.

Key words: aphorism, wisdom, philosophical and ethical, educational and didactic, personality, continent.

KIRISH

Aforizm lug'atlarda "chuqur mazmunni, aniq va ixcham shaklli hikmatli so'zlar", "muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr" [10, 40] deb izohlanadi.

Ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, aforizm bir o'rinda hikmatli so'z, boshqa bir izohda fikr. Birinchi izoh filologik, ikkinchisi falsafiy ta'rif sifatida shakllangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bu sohada izlanishlar olib borgan I.Mannopov ko'pgina tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirib, aforizمنى "hikmat, ...tajriba bilan erishilgan to'g'ri bilim; ...hamma narsaning eng mukammali; bilimdonlik, donishmandlik, falsafa, mahfiy sir, aqlu haqiqatga to'g'ri keladigan nozik ma'noli qisqa so'z..." [4, 50, 54] deb belgilaydi.

Aforizmlar doimo ulug' daholar e'tiborida bo'lgan. L.Tolstoy fikriga ko'ra "Aforizmlar – falsafiy mushohadalarni ifodalashning deyarli eng qulay formasidir" [8, 15]. Bu ta'rifda hikmatning mohiyati va imkoniyati ochib berilgan. "Aforizmlar – bu, mitti shakldagi donolik, fikr va tuyg'ularning kuchli javhari" der ekan, U.Oljer yuqoridagi fikrni yanada to'ldirgan [8, 15]. K.Immerman tomonidan aytilgan "axloq uzundan-uzun gap, nasihatgo'ylikdan ko'ra ixchamgina hikmatli so'zlarda yaxshi ifodalanadi" [8, 15] degan jumlasida hikmatning qanday bo'lishi, nimaga xizmat qilishi – vazifasi ham jamlab berilgan.

Keltirilgan izoh va ta'riflarning hammasi to'g'ri, ularda aforizmga xos xususiyat va belgilar o'z aksini topgan. Shuningdek, aforizمنى uning mohiyati va funksiyasidan kelib chiqib, quyidagicha belgilash ham mumkin: aforizm falsafiy-axloqiy, ta'limiy-didaktik fikrlarni ifodalovchi, intellektual va tarbiyaviy funktsiya bajaruvchi nasriy yoki nazmiy shaklda bitilgan kichik hajmli asar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aforizmlarda ong va tafakkur shakllanishi va takomili uchun fikrlar bildiriladi, yashash va faoliyat olib borish saboqlari uzatiladi. Shu jihatdan ular mumtoz she'riyatdagi fard va qit'alar mazmuni bilan hamohang bo'ladi. Alisher Navoiyning

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvat barcha qilmoqdur, demak yo'q, – [2, 529] fardi aforizmning tipik namunasidir.

Alisher Navoiyning qit'alari orasida ikki baytilari ko'p. Shu ikki bayt holida ham, har bir bayt alohidalikda ham aforistik xarakter kasb etadi.

Nihoniy igna sanchar yorlardin

Aduvvash novakafganlar ko'p ortuq, –

bayti shu ikki misra holida ham aforizm. Chunki bu bayt fikr tugalligiga ega. Uning ikkinchi bayti bo'lgan.

Munofiq sheva zolim do'stlardin

Muxolif tib' dushmanlar ko'p ortuq тық, – [1, 505]

misralari ham mustaqil holda aforizm. Har ikki bayt bir qit'a sifatida shakllantirilgan. Ikkinchi bayt birinchisini qiyosiy asosda to'ldiradi.

Aforizmlar mualliflari ma'lum bo'ladi. ular davlat va jamoat arboblari, fan va san'at fidoyilari, yozuvchi va shoirlardir. Mutafakkirlar tomonidan aforizmlar ijod turi sifatida yaratiladi. Ko'p hollarda yozilayotgan asar davomida o'zi, vaziyat taqazosi bilan quyilib kelishi ham mumkin. Bunday sharoitda hikmat yo muallifning o'zi tomonidan yoki biror personaj tomonidan yuzaga chiqariladi. Masalan, Umar Hayyom haqidagi kichik nutqning oxirgi uch jumlasini quyidagicha: "Chinakam shodlik lahzalarini guldek uzib emas, Dante aytgan abadiy so'lmas gulzorga ko'z tikib yashaydi. Abadiy so'lmas gulzor esa – umid. Hayyomda insonning xudodan bo'lak umidi yo'q" [3, 719].

Asqad Muxtorning "Umid" nomli she'rida shunday misralar bor:

Boboning umrida ko'p bo'lgandir baxt,

Lekin baxt o'tkinchi,

Umid – abadiy. [3, 109]

Nasr shaklidagi parchaning o'rtasida kelgan jumladan "esa", nazm shaklidagi yozuvning keyingi ikki misrasi tarkibidan "lekin" so'zlari olinib, ular ixchamlashtirilsa, to'rt so'zdan tashkil topgan aforizm shakllanadi: "Abadiy so'lmas gulzor – umid".

Baxt – o'tkinchi,

Umid – abadiy.

Har ikki holatda ham hikmatlar muallifning o'zi tomonidan yuzaga chiqarilgan. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek fojiasida personaj tilidan aytiladi. "Ulug'bek: Irodaning farzandi – umid" [245].

Bu hikmatlar ko'plab allomalarning aforizmlariga ham shakliy, ham mazmun jihatidan hamohangdir. "L.Vovenarg: Umid hech qachon odam to'ymaydigan boylikdir. A.Pop: Umr bo'yi bizga hamroh bo'lgan umid hatto o'lim to'shagida ham bizni tark etmaydi. I.Gete: Hatto qabr yoqasida ham umid yashaydi. T.Filler: Umid yurak yorilib ketmasligi uchun qalqondir" [8, 94].

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir nutqi ichida yangisini qurmasdan eskisini buzmaslik haqida gapiradi. Bu jumla "Yangisini qurmay eskisini buzma" shaklida aforizmga aylanadi.

Ba'zi aforizmlar o'z muallifining kim ekanligi haqida dalolat berib turadi. "Bilim – kuch, kuch esa bilimdir" [8, 153] hikmatining muallifi faylasuf Bekon ekan. "Kuch adolatda" hikmatining muallifi esa podsho – Amir Temur.

Badiiy ijod ahlining hikmatlari, odatda, badiiylik bilan ifodalanadi. Omon Matjonning hikmatlari shunday libosga ega. "Lablariga hayot suvi quyilavergach, to'g'on toshlaridan o't unib chiqibdi". "O'zining qalbida biror uchqun bo'lmasa, ustoz quyosh bo'lsa hamki, undan yorug'lik chiqmog'i gumon". "Ko'z – topadi. Ba'zan yashiradi ham". "Qo'shquloq g'o'za o'zi unib chiqqan chigit qobig'ini boshiga ko'tarib turibdi" [7, 129, 134, 136].

Aforizmlar xalqonalik darajasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Aforizm – hikmatning keng omma bir eshitish yoki bir o'qishda qayta eshitmay va qayta ko'z yugurtirmay tushunadigan navi haqiqiy hikmatdir. Masalan, Asqad Muxtorning quyidagi hikmatlari shu toifaga kiradi: "Dehqonning mehnati hayotning ilohiy aqidasi"; "Toshning bardoshi zo'r"; "Miltiq har otganda o'zi seskanib orqaga tisaniladi" [3, 715, 709, 710].

Bu hikmatlar mazmunining nisbatan yengil hazm qilinishining omili shundaki, har bir inson, butun xalq dehqon mehnatiyu toshning qattiqligi hamda miltiq silkinishidan xabardor, bu holatlarni

TILSHUNOSLIK

bevosita kuzatgan miltiq otmagan, ketmon chopmagan bo'lsa ham, jonli mushohada bilan kuzatgan.

Aforizm – hikmatlarning yana bir toifasi, garchi muallif tomonidan belgilangan bo'lmasa ham, elita uchun tayin etilgan bo'ladi. Masalan, Asqad Muxtorning "Har bir Shaxs – mustasnodir" degan hikmatini anglash uchun Shaxs tushunchasini idrok etish, ayrim olingan bir odam, deb bilmaslik kerak. Chunki mustasno "umumiy qoidadan, odatdagi tartib, holatdan tashqari" [11, 292], ya'ni u boshqa odamlar kabi yashash tarzidan uzoq – ko'proq mehnat qiladi, dam olish kuni belgilanmagan, kashf etadi, odamlar va jamiyat hayotiga ta'sir etadi, eng muhimi, har qanday sharoitda ular erk kishisi bo'lib qoladilar, har qanday vaziyatda ham haq va adolatni deydilar, hatto yolg'izlikda ham adolat bayrog'ini tutadilar. F. Mering Lessing haqida yozar ekan, shoir sifatida Gete va Shillerdan, san'atshunos sifatida Vinkelmandan, faylasuf sifatida Kantdan, psixolog sifatida Gerderdan, filolog sifatida Reyske yoki Runkendan pastligini ta'kidlagan holda, uning nemis ruhiy-ma'naviy hayotining o'ta keng sohalarida tartib o'rnatganini ko'rsatib o'tadi. Lessing xur va ozod ruh egasi, ShAXS bo'lganligiga e'tibor qaratadi [6, 94].

Inson faoliyatining ayrim sohalariga doir aforizmlar ham Asqad Muxtor hikmatlari orasida o'z o'rniga ega. Masalan, "Sonet – she'riyatning olifta kam zuli" [3, 711] she'r tuzilishi, she'r arxitektonikasi bo'yicha ilmiy bilim, ilmiy haqiqatni aks ettiradi. "Yozuvchi sayoz joyda cho'kadi", "Yurak qoni bilan yozgan odam uzun yozolmaydi" [3, 709, 713] kabi aforizmlar badiiylilik, mahorat haqida bahs etadi. Bular Abdulla Qahhorning "adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak" hikmati kabi ijodkorlar uchun mo'ljallangan.

XULOSA

Asqad Muxtorning ba'zi hikmatlari ilmiy-falsafiy xarakterga ega. "Inson tabiat bolasi, bolaning gunohidan kechish mumkin", "Qalam so'zning soyasini chizadi" [3, 712, 711] aforizmlari shunday ruhda yaratilgan.

Xullas, aforizmlar tajribadan o'tgan bilimlarning tiniq, falsafiy ifodasi. Ularhayot, yashashning mohiyati haqida saboq beradi, o'ylantiradi, fikr-mulohaza yuritishga safarbar etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. –Тошкент: "Фан", 1990.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. –Тошкент: "Фан", 1990.
3. Асқад Мухтор. Танланган асарлар. –Тошкент: "Sharq", 2021.
4. Маннопов И. Хикматнавислик анъанаси. –Тошкент: "Qaqnus Media", 2019.
5. Мақсуд Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. 3-том. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
6. Мering Ф. Избранные труды по эстетике. –М.: «Искусство», 1985.
7. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
8. Тафаккур гулшани. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
9. Қуროнов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: "Akademnashr", 2010.
10. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1983.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 3-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2023.
12. X.Шарафиддинов. Алишер Навоий ижодининг ижтимоий қирралари. Хоразм Маъмун академияси. Хива, 2022-11/4.
13. X.Шарафиддинов. Уруш гувоҳи бўлган дарё. Filologiyaning dolzarb muammolari va innavatsion yechimlari. Xalqaro anjuman materiallari to'plami. 2022. 12. 12.
14. X.Шарафиддинов. Уруш даври она ва бола фожиасининг бадий тасвири. Analytical Journal of Education and Development, 2023, 3.